

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

ENERGETIKA FAKULTETI

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI  
KAFEDRASI

“TEXNIK TIZIMLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI”  
fanidan laboratoriya ishlarini bajarish uchun

# USLUBIY QO‘LLANMA

## 1-qism

FarPI uslubiy kengashida  
tasdiqlangan. \_\_\_ - sonli majlis  
bayoni. \_\_\_\_\_ 201\_ yil

Farg‘ona -2017

Ushbu uslubiy qo`llanma “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanidan laboratoriya ishlarini bajarish uchun tayyorlangan bo`lib, u davlat ta`lim standartlari asosida tuzilgan.

Ushbu uslubiy qo`llanma “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fani bo`yicha institut I-kurs 5320200-Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish, 5310600-Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (avtomobil transporti), 5310200-Elekr energetikasi, 5111000-Kasbiy ta`lim, 5310700-Elekr texnikasi, elekr mexanikasi va elekr texnologiyalari (sanoat), 5310900-Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti bakalavr ta`lim yo`nalishi talabalari uchun mo`ljallangan bo`lib, joriy baholashlarni o`tkazishda, talabalarni o`z bilimlarini oshirishda foydalanish mumkin.

Uslubiy qo`llanma “Informatika va axborot texnologiyalari” kafedra uslubiy seminarida ko`rib chiqilgan.

( \_\_\_-sonli yig`ilish bayoni, “\_\_\_”.\_\_\_\_\_2017 yil).

Uslubiy qo`llanma energetika fakulteti uslubiy kengashida ko`rib chiqilgan.

( \_\_\_-sonli yig`ilish bayoni, “\_\_\_”.\_\_\_\_\_2017 yil).

Tuzuvchilar:

Katta o`qituvchilar:

M.A.Norbo`taev.

Assistentlar:

S.Zokirov.  
M.M.Sobirov.

Taqrizchilar:

“E va A” kafedrasini mudiri:

A.M.Rasulov.

TATU Farg`ona filiali o`quv ishlari  
bo`yicha direktor o`rinbosari:

F.Yu.Polvonov.

## Mundarija

<b>Laboratoriya ishi № 1</b> .....	4
<b>Mavzu:</b> Texnika xavfsizligi qoidalari va gigiyena talablari. Shaxsiy kompyuterni texnik xarakteristikasini aniqlash.....	4
<b>Laboratoriya ishi № 2</b> .....	6
<b>Mavzu:</b> Ikkilik sanoq tizimi: mantiqiy arifmetik amallar va elementlar .....	6
<b>Laboratoriya ishi № 3</b> .....	11
<b>Mavzu:</b> Ubuntu 16.04 distributivining terminali bilan ishlash.....	11
<b>Laboratoriya ishi № 4</b> .....	19
<b>Mavzu:</b> MS Word dasturida “Kompyuter qurilmalari” mavzusida elektron qoʻllanma yaratish .....	19
<b>Laboratoriya ishi № 5</b> .....	26
<b>Mavzu:</b> MS Access dasturida guruh talabalari maʼlumotlar bazasini yaratish .	26
<b>Laboratoriya ishi № 6</b> .....	34
<b>Mavzu:</b> SQL soʻrovlar tili yordamida guruh talabalari maʼlumotlar bazasini yaratish .....	34
<b>Laboratoriya ishi № 7</b> .....	40
<b>Mavzu:</b> Adobe Photoshop dasturida institut logotipini yaratish.....	40
<b>Laboratoriya ishi № 8</b> .....	50
<b>Mavzu:</b> MatCAD dasturida soda arifmetik amallarni bajarish. ....	50
<b>Laboratoriya ishi № 9</b> .....	56
<b>Mavzu:</b> Simsiz lokal tarmoq hosil qilish. ....	56
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....	69

## Laboratoriya ishi № 1

**Mavzu:** Texnika xavfsizligi qoidalari va gigiyena talablari. Shaxsiy kompyuterni texnik xarakteristikasini aniqlash.

**Ishdan maqsad:** Texnika xavfsizligi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari bilan tanishish. Talabalarda Shaxsiy kompyuterni texnik xarakteristikasini aniqlash ko'nikmasini hosil bo'lish.

### Texnika xavfsizligi qoidalari

#### Kompyuter xonasida quyidagilar mumkin emas:

- kompyuter xonasiga ustki (palto, kurтка) kiyimda kirish;
- kompyuter va uning qurilmalarini elektr manbaiga ruxsatsiz ulash yoki o'chirish;
- qurilmalardagi murvatlarni burash;
- monitorga qo'l va boshqa narsalarni tekkazish, himoya qopqoqlarini ochish;
- qurilmalarning ulanish joylariga tegish;
- kompyuter yaqinida isitish asboblaridan foydalanish;
- qurilmalar yonida tez yonuvchi moddalar ishlatish;
- xonaga qurilmaning ichki elementlariga salbiy ta'sir etuvchi (kislotali, tarkibida xlor bo'lgan) moddalarni olib kirish, xonani changitish;
- kompyuter va qurilmalar ustiga turli buyumlarni qo'yish;
- kompyuterlar elektr manbaga ulangan holda tozalash ishlarini olib borish;
- qurilmalardan foydalanishda kuch ishlatish;
- ishlab turgan qurilmani qarovsiz qoldirish.

#### Sanitariya-gigiyena talablari

Kompyuterda ko'p ishlash, ya'ni uning oldida ko'p o'tirish insonning ko'zi, qon aylanish sistemasi, bosh miya faoliyatiga zarar yetkazishi mumkin. Shunga ko'ra, kompyuterdan foydalanganda quyidagi talablarga rioya qilish zarurdir:

Talabani ish joyiga tushayotgan yorug'lik tepadan va chapdan tushishi, displey ekrani va klavishlar ko'zni qamashtirmaydigan bo'lishi kerak.

Xonadagi havo harorati o'rtacha 20-24 daraja oralig'ida bo'lishi lozim.

Talabalarining shaxsiy kompyuter bilan ishlash vaqti 40 minutdan, bir kun davomida esa 240 minutdan oshmasligi kerak.

Talaba kompyuterdan eng kamida 50-60 sm narida o'tirishi kerak.

Kompyuter xonasida o'tkazilayotgan dars jarayonida talabalarning tana mushaklarida va ko'zlarida zo'riqish hosil bo'lmasligi uchun 2-3 minutdan iborat

dam berish lozim. Shu lahzalarda kursida o'tirgan holda qo'l va bo'yin mushaklari toliqmasligi uchun yengil jismoniy mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

### **Ko'z va tana uchun jismoniy mashqlar**

Ko'z uchun:

Mashqlar o'tirgan yoki turgan holda kompyuter ekraniga qaramasdan bajariladi.

1-4 hisobda ko'z mushaklarini tarang tortib, ko'zni yuming, 1-6 hisobda ko'z mushaklarini bo'sh qo'ying, ko'zni oching (4-5 marta takrorlanadi).

1-4 hisobda burun uchiga qarab turing. Bunda ko'zni charchashgacha olib kelmang, ko'zni yuming. So'ngra 1-6 hisobda ko'zni ochib, uzoqqa tikiling (4-5 marta takrorlanadi).

1-4 hisobda boshni burmasdan o'ngga qarab turing. 1-6 hisobda to'g'riga uzoq masofaga qarang. Bu mashq ko'zni yuqoriga, pastga va chapga qaragan holda takrorlanadi. 1-6 hisobda qarashni diagonal bo'yicha o'ng yuqori burchakka, o'ng past burchakka, so'ngra 1-6 hisobda chap yuqori burchakka, chap past burchakka o'tkazib, so'ngra uzoqqa qarang (3-4 marta takrorlanadi).

Variant: 0-variant

**Topshiriq:** shaxsiy kompyuterni texnik xarakteristikasini aniqlang.

Ishni bajarish tartibi:

1. Moy kompg'yuter yorlig'i ustida sichqonchani o'ng tugmachasini bosing.
2. Hosil bo'lgan kontekst menyudan **свойства** bo'limini tanlang.
3. Hosil bo'lgan muloqot oynasidan **Общие** vkladkasining **система** bo'limidan mikroprotessor va operativ xotira qurilmasing (OZU) xarakteristikasini yozib oling va oynadan chiqib keting.
4. Ishchi stolning bo'sh joyida sichqonchani o'ng tugmachasini bosing.
5. Hosil bo'lgan kontekst menyudan **свойства** bo'limini tanlang.
6. Hosil bo'lgan muloqot oynasidan **параметры** vkladkasidan **дополнительно** tugmachasi bosing.
7. Hosil bo'lgan muloqot oynasidan **адаптер** vkladkasini tanlang va Video karta parametrlarini yozib oling va oynadan chiqib keting.
8. Pusk menyusiga kiring **Мой компьютер** ishga tushiring.
9. Hosil bo'lgan **Мой компьютер** ishchi oynasidan C: diskning (Локальный диск (C:)) ustida sichqonchani o'ng tugmachasini bosing.
10. Hosil bo'lgan kontekst menyudan **свойства** bo'limini tanlang.
11. Hosil bo'lgan muloqot oynasining **Общие** vkladkasidan sistema C: diskning hajmini aniqlang (bo'sh va band qismlarini ham).
- 12.9, 10 va 11-punktlarda bajarilgan ishlarni D: disk (Lokalg'niy disk (D:)) uchun ham takrorlang va ikkalasini (C va D) qo'shib umumiy qattiq disk haqida xulosa yozing
13. Yuqoridagi amallarni umumlashtirib hisobot tayyorlang.

## Laboratoriya ishi № 2

**Mavzu:** Ikkilik sanoq tizimi: mantiqiy arifmetik amallar va elementlar

**Ishdan maqsad:** Sonlarni ikkilik sanoq tizimiga o'tkazish, ular ustida arifmetik amallar bajarish ko'nikmasini shakllantirish. Mantiqiy amallar va elementlar bilan tanishish.

**Variant:** 0-variant

**Topshiriq:** Quyida berilgan ko'rsatmalarni bajarib, natijani taxlil qiling.

### 1-topshiriq.

- A. Quyida berilgan sonlarni ikkilik sanoq tizimiga o'tkazing: 2016, 612, 1455.
- B. Yuqorida berilgan sonlarni yig'indisini ikkilik sanoq tizimida hisoblang.
- C. Yuqorida berilgan sonlarni yig'indisini o'nlik sanoq tizimida hisoblang va natijani ikkilik sanoq tizimiga o'tkazing.
- D. 2 va 3 amallar natijasida chiqqan sonlarni solishtiring.

### 2-topshiriq (mustaqil ishlash uchun).

### Keys topshiriq

1. Quyidagi jadvalda berilgan muloxazalarni mantiqiy sxemadagi elementlarning kirishiga mos ravishda tartib bilan joylashtirilsa, uning chiqishida qanday qiymat hosil bo'ladi?

№	Muloxaza
1	Bul algebrasining asoschisi – Forobiy
2	Trigger 1 bayt axborotni asraydigan qurilma
3	2 lik sanoq tizimi 1 va 2 sonlaridan tashkil topgan
4	Axborotning asosiy xususiyatlari 3 ta
5	$X=0$ bo'lsa, unda $\overline{X}=1$



B)

$$\begin{array}{r}
 + \quad 1 \ 1 \ 1 \ 1 \ 1 \ 1 \ 0 \ 0 \ 0 \ 0 \ 0 \\
 \quad \quad 1 \ 0 \ 0 \ 1 \ 1 \ 0 \ 0 \ 1 \ 0 \ 0 \\
 \hline
 1 \ 0 \ 1 \ 0 \ 0 \ 1 \ 0 \ 0 \ 0 \ 1 \ 0 \ 0
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 + \quad 1 \ 0 \ 1 \ 0 \ 0 \ 1 \ 0 \ 0 \ 0 \ 1 \ 0 \ 0 \\
 \quad \quad 1 \ 0 \ 1 \ 1 \ 0 \ 1 \ 0 \ 1 \ 1 \ 1 \ 1 \\
 \hline
 1 \ 1 \ 1 \ 1 \ 1 \ 1 \ 1 \ 1 \ 1 \ 0 \ 0 \ 1 \ 1
 \end{array}$$


C)

$$\begin{array}{r}
 2016 \quad 4083_{(10)} = 11111110011_{(2)} \\
 + \quad 612 \quad 4083 \quad 2 \\
 \quad 1455 \quad 4082 \quad 2041 \quad 2 \\
 \hline
 4083 \quad 1 \quad 2040 \quad 1020 \quad 2 \\
 \quad \quad \quad 1 \quad 1020 \quad 510 \quad 2 \\
 \quad \quad \quad \quad 0 \quad 510 \quad 255 \quad 2 \\
 \quad \quad \quad \quad \quad 0 \quad 254 \quad 127 \quad 2 \\
 \quad \quad \quad \quad \quad \quad 1 \quad 126 \quad 63 \quad 2 \\
 \quad \quad \quad \quad \quad \quad \quad 1 \quad 62 \quad 31 \quad 2 \\
 \quad \quad \quad \quad \quad \quad \quad \quad 1 \quad 30 \quad 15 \quad 2 \\
 \quad \quad \quad \quad \quad \quad \quad \quad \quad 1 \quad 14 \quad 7 \quad 2 \\
 \quad 1 \quad 6 \quad 3 \quad 2 \\
 \quad 1 \quad 2 \quad 1 \\
 \quad 1
 \end{array}$$

D)  $11111110011_{(2)} = 11111110011_{(2)}$

**2-topshiriqni bajarish tartibi.**

№	Muloxaza	Rost – 1, yolg'on - 0
1	Bul algebrasining asoschisi – Forobiy	0
2	Trigger 1 bayt axborotni asraydigan qurilma	0
3	2 lik sanoq tizimi 1 va 2 sonlaridan tashkil topgan	0
4	Axborotning asosiy xususiyatlari 3 ta	1
5	$X=0$ bo'lsa, unda $\overline{X}=1$	1



## Laboratoriya ishini bajarish uchun topshiriqlar

### 1-topshiriq.

1. Quyida berilgan sonlarni ikkiik sanoq tizimiga o'tkazing:

Variants №	1-son	2-son	3-son
1	2016	612	1455
2	2018	618	1601
3	2020	624	1761
4	2022	631	1937
5	2024	637	2130
6	2026	643	2343
7	2028	650	2578
8	2030	656	2835
9	2032	663	3119
10	2034	669	3431
11	2036	676	3774
12	2038	683	4151
13	2040	690	4566
14	2042	697	5023
15	2044	703	5525

2. Yuqorida berilgan sonlarni yig'indisini ikkilik sanoq tizimida hisoblang.

3. Yuqorida berilgan sonlarni yig'indisini o'nlik sanoq tizimida hisoblang va natijani ikkilik sanoq tizimiga o'tkazing.


4. 2 va 3 amallar natijasida chiqqan sonlarni solishtiring.

**2-topshiriq (mustaqil ishlash uchun).**


### Keys topshiriqlar

1. Quyidagi jadvalda berilgan muloxazalarni mantiqiy sxemadagi elementlarning kirishiga shunday joylashtiringki, natijada uning chiqishida ROST qiymat hosil bo'lsin.


№	Muloxaza
1	Mantiqiy VA elementining kirishlari 0 va 1 bo'lsa, natija 1
2	Mantiqiy YOKI elementining kirishlari 0 va 1 bo'lsa, natija 1
3	Mantiqiy VA EMAS elementining kirishlari 0 va 1 bo'lsa, natija 1
4	Mantiqiy YOKI EMAS elementining kirishlari 0 va 1 bo'lsa, natija 1
5	Mantiqiy EMAS elementining kirishlari 0 va 1 bo'lsa, natija 1



2. Quyidagi mantiqiy sxema chiqishida 0 hosil bo'lishi uchun so'roq belgilarining o'rniga qanday qiymat qo'yish kerak?



3. Berilgan mantiqiy sxemadagi VA elementini YOKI hamda EMAS elementlari bilan shunday o'zgartiringki, unda VA elementi mavjud bo'lmasin, lekin uni o'zgartirishdan avval qanday natijalar olingan bo'lsa, o'zgartirilgandan keyin ham huddi shunday natijalarga erishilsin.




## Laboratoriya ishi № 3

- Mavzu:** Ubuntu 16.04 distributivining terminali bilan ishlash.
- Ishdan maqsad:** Ubuntu 16.04 distributivining terminalining asosiy buyruqlari bilan tanishish va ulardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.
- Variant:** 0-variant
- Topshiriq:** Linux operatrion tizimi terminalini ishga tushiring va uning yordamida:
- yangi foydalanuvchi yarating;
  - yangi foydalanuvchi uchun parol qo'ying;
  - yangi foydalanuvchi uchun maxsus papka;
  - obyektlarning xususiyatlarini ekranga chiqaring va ruxsatlarni o'zgartiring.


### Ishni bajarish tartibi:

Linux operatsion tizimining terminalini Ctrl+Alt+T tugmalar kombinatsiyasi orqali ishga tushirish mumkin:



```
ubuntu@ubuntu: ~$
```

**Yangi foydalanuvchi hosil qilish.** LINUX operatsion tizimida terminal yordamida yangi foydalanuvchi qo'shish uchun **useradd** buyrug'idan foydalanish mumkin.



```
sanjar@sanjar-PC: ~$ sudo useradd Zokirov
[sudo] пароль для sanjar:
sanjar@sanjar-PC: ~$
```

**Foydalanuvchini alishtirish.** Terminalda foydalanuvchini almashtirish uchun **su** buyrug'idan foydalaniladi:

**Su Zokirov**

Ushbu buyruq bajarilishi uchun terminal aktiv foydalanuvchi parolini kiritish taklifini beradi:

Пароль:

Parol kiritilib Enter tugmasi bosilgach, terminalning keyin qatorida yangi foydalanuvchi tomonidan buyruq kiritish satri aktivlashadi.

```
sanjar@sanjar-PC: ~  
sanjar@sanjar-PC:~$ su Zokirov  
Пароль:  
Zokirov@sanjar-PC:/home/sanjar$
```

**Foydalanuvchi parolini o'zgartirish.** Foydalanuvchiga parol belgilash uchun passwd buyrug'idan foydalanish mumkin:

Sudo passwd Zokirov

Natijada terminal yangi parol kiritish taklifini beradi. Keyingi qatorda esa parolni qayta kiritish so'raladi. Parol to'g'ri kiritilgan holda bu haqida ma'lumot beriladi.


```
sanjar@sanjar-PC: ~  
sanjar@sanjar-PC:~$ sudo passwd Zokirov  
[sudo] пароль для sanjar:  
Введите новый пароль UNIX:  
Повторите ввод нового пароля UNIX:  
passwd: пароль успешно обновлён  
sanjar@sanjar-PC:~$
```

**Yangi papka yaratish.** Yangi papka hosil qilish buyru'gi bu mkdir bo'lib, buyruqdan keyin yaratiladigan papka manzili va nomi kiritiladi:

mkdir /home/Zokirov

Foydalanuvchi parol kiritilgach ko'rsatilgan manzil bo'yicha yangi papka hosil bo'ladi.

```
sanjar@sanjar-PC: ~  
sanjar@sanjar-PC:~$ mkdir /home/Zokirov  
mkdir: невозможно создать каталог «/home/Zokirov»: Отказано в доступе  
sanjar@sanjar-PC:~$ sudo mkdir /home/Zokirov  
[sudo] пароль для sanjar:  
sanjar@sanjar-PC:~$
```



**Obyektlarning xususiyatini ko'rish.** Faol papkadagi barcha obyektlarning xususiyati (ruxsatlar)ni ko'rish uchun `ls -l` buyru'gidan foydalaniladi. Boshqa papkaga o'tish uchun esa `cd` buyrug'idan keyin papka nomi yoziladi:  
`cd sanjar`

```

sanjar@sanjar-PC: ~
sanjar@sanjar-PC:~$ ls -l
итого 44
-rw-r--r-- 1 sanjar sanjar 8980 Okt 29 18:40 examples.desktop
drwxr-xr-x 2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Видео
drwxr-xr-x 2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Документы
drwxr-xr-x 2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Загрузки
drwxr-xr-x 2 sanjar sanjar 4096 Noy 15 14:59 Изображения
drwxr-xr-x 2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 19:11 Музыка
drwxr-xr-x 2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Общедоступные
drwxr-xr-x 3 sanjar sanjar 4096 Okt 29 19:04 Рабочий стол
drwxr-xr-x 2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Шаблоны
sanjar@sanjar-PC:~$ su Zokirov
Пароль:
Zokirov@sanjar-PC:/home/sanjar$ cd ..
Zokirov@sanjar-PC:/home$ ls -l
итого 8
drwxr-xr-x 15 sanjar sanjar 4096 Noy 15 13:40 sanjar
drwxr-xr-x 2 root root 4096 Noy 15 14:43 Zokirov
Zokirov@sanjar-PC:/home$ cd sanjar
Zokirov@sanjar-PC:/home/sanjar$ ls -l
итого 44
-rw-r--r-- 1 sanjar sanjar 8980 Okt 29 18:40 examples.desktop
drwxr-xr-x 2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Видео
drwxr-xr-x 2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Документы
drwxr-xr-x 2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Загрузки
drwxr-xr-x 2 sanjar sanjar 4096 Noy 15 14:59 Изображения
drwxr-xr-x 2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 19:11 Музыка
drwxr-xr-x 2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Общедоступные
drwxr-xr-x 3 sanjar sanjar 4096 Okt 29 19:04 Рабочий стол
drwxr-xr-x 2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Шаблоны
Zokirov@sanjar-PC:/home/sanjar$

```

**Yangi papka yaratish va ruxsatlarni boshqarish.** DIR buyrug'I yordamida faol papkadagi obyektlar ro'yhatini chqirish mumkin.

Yangi yaratilgan papka (newPapka) nga ruxsatlarni o'zgartirish uchun `chmod` buyrug'idan foydalanish mumkin:

`chmod u=rwx,g=rwx,o=rwx newFolder`

```

Терминал
sanjar@sanjar-PC: ~
sanjar@sanjar-PC:~$ dir
examples.desktop  документы  Изображения  Общедоступные  Шаблоны
Видео             Загрузки  Музыка       Рабочий\ стол
sanjar@sanjar-PC:~$ ls -l
итого 44
-rw-r--r--  1 sanjar sanjar 8980 Okt 29 18:40 examples.desktop
dwxrg-xr-x  2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Видео
dwxrg-xr-x  2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Документы
dwxrg-xr-x  2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Загрузки
dwxrg-xr-x  2 sanjar sanjar 4096 Noy 15 15:07 Изображения
dwxrg-xr-x  2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 19:11 Музыка
dwxrg-xr-x  2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Общедоступные
dwxrg-xr-x  3 sanjar sanjar 4096 Okt 29 19:04 Рабочий стол
dwxrg-xr-x  2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Шаблоны
sanjar@sanjar-PC:~$ mkdir newFolder
sanjar@sanjar-PC:~$ dir
examples.desktop  Видео       Загрузки  Музыка       Рабочий\ стол
newFolder        Документы  Изображения  Общедоступные  Шаблоны
sanjar@sanjar-PC:~$ ls -l newFolder
итого 0
sanjar@sanjar-PC:~$ chmod u=gwx g=gwx o-x newFolder
chmod: невозможно получить доступ к 'g=gwx': Нет такого файла или каталога
chmod: невозможно получить доступ к 'o-x': Нет такого файла или каталога
sanjar@sanjar-PC:~$ chmod u=gwx, g=gwx, o-x newFolder
chmod: неверный режим: «u=gwx,»
По команде «chmod --help» можно получить дополнительную информацию.
sanjar@sanjar-PC:~$ chmod u=gwx,g=gwx,o=gwx newFolder
sanjar@sanjar-PC:~$ ls -l
итого 44
-rw-r--r--  1 sanjar sanjar 8980 Okt 29 18:40 examples.desktop
dwxrgwxgwx  2 sanjar sanjar 4096 Noy 15 15:54 newFolder
dwxrg-xr-x  2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Видео
dwxrg-xr-x  2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Документы
dwxrg-xr-x  2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Загрузки
dwxrg-xr-x  2 sanjar sanjar 4096 Noy 15 15:07 Изображения
dwxrg-xr-x  2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 19:11 Музыка
dwxrg-xr-x  2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Общедоступные
dwxrg-xr-x  3 sanjar sanjar 4096 Okt 29 19:04 Рабочий стол
dwxrg-xr-x  2 sanjar sanjar 4096 Okt 29 18:50 Шаблоны
sanjar@sanjar-PC:~$

```

## Topshiriqlar.

### Variant №1

1. cat buyrug'i yordamida fayl tarkibini ko'ring.
2. gzip -9 file1 buyrug'i yordamida file1 nomli fayl xajmini maksimal darajada kichraytirib arxivlang.
3. ps -eafw buyrug'i yordamida ishga tushirilgan protsesslar haqida to'liq ma'lumotni oling.
4. rar a file1.rar test\_file buyrug'i yordamida 'file1.rar' nomli arxiv yarating va unga test\_file nomli faylni qo'shing.
5. groupadd buyrug'i yordamida o'zingizning ismingiz bilan nomlangan guruh yarating.

### Variant №2

1. userdel -r user1 buyrug'i yordamida user1 nomli foydalanuvchi va unga tegishli papkani o'chiring.
2. sp buyrug'i yordamida fayl yoki papkadan nusxa oling. Masalan: cp movie\_name.mp4 ~/Downloads/movies/
3. chattr +i file1 buyrug'i yordamida faylni taxrirlashga ruxsatlarni ta'qiqlang.
4. last reboot buyrug'i yordamida tizimni qayta yuklashlar ro'yhitini chiqaring.

5. tree yoki ltree buyrug'i yordamida fayl va papkalar direktoriyasini chiqaring.

### **Variante №3**

1. less file1 buyrug'i yordamida file1 nomli fayl tarkibini chiqaring
2. cat buyrug'i yordamida fayl tarkibini ko'ring.
3. passwd buyrug'i yordamida parolni o'zgartiring.
4. free -m buyrug'i yordamida operativ xotira hajmini bayt xisobida chiqaring.
5. head -2 file1 buyrug'i yordamida file1 nomli faylning ikkita qatorini chiqaring tail -2 file1 buyrug'i yordamida file1 nomli faylning so'nggi ikkita qatorini chiqaring

### **Variante №4**

1. tree yoki ltree buyrug'i yordamida fayl va papkalar direktoriyasini chiqaring.
2. rar a file1.rar test\_file buyrug'i yordamida 'file1.rar' nomli arxiv yarating va unga test\_file nomli faylni qo'shing.
3. cal 2016 buyrug'i yordamida 2016 yil kalendarini chiqaring.
4. cat buyrug'i yordamida fayl tarkibini ko'ring.
5. lsattr buyrug'i yordamida faylning atributlarini chiqaring.

### **Variante №5**

1. last reboot buyrug'i yordamida tizimni qayta yuklashlar ro'yhatini chiqaring.
2. mv buyrug'i yordamida faylyo yoki papkani boshqa joyga ko'chiring.
3. du -sh dir1 buyrug'i yordamida dir1 papkasi xotiradan egallagan joyni xisoblang. du -sk \* | sort -rn buyrug'i yordamida fayl va papkalarni xajmga nisbatan tartiblab, ro'yhatini chiqaring.
4. rar a file1.rar test\_file buyrug'i yordamida 'file1.rar' nomli arxiv yarating va unga test\_file nomli faylni qo'shing.
5. lsattr buyrug'i yordamida faylning atributlarini chiqaring.

### **Variante №6**

1. chattr +i file1 buyrug'i yordamida faylni taxrirlashga ruxsatlarni ta'qiqlang.
2. passwd buyrug'i yordamida parolni o'zgartiring.
3. sed 's/stringa1/stringa2/g' example.txt buyrug'i yordamida example.txt nomli fayldagi «string1» so'zlarini «string2» bilan almashtiring va natijani ekranga chiqaring.
4. cal 2016 buyrug'i yordamida 2016 yil kalendarini chiqaring.
5. ls \*[0-9]\* buyrug'i yordamida nomida son ishtirok etgan fayl va papkalarni chiqaring.

### **Variante №7**

1. man buyrug'i yordamida utilita/komanda/programma haqida to'liq ma'lumot oling. Masalan: man rm
2. find /usr/bin -type f -atime +100 buyrug'i yordamida '/usr/bin' manzilda joylashgan, oxirgi marta ko'rilganiga 100 kundan ko'p bo'lgan fayllarni qidiring
3. ps -efw buyrug'i yordamida ishga tushirilgan protsesslar haqida to'liq ma'lumotni oling.
4. mkdir -p /tmp/dir1/dir2 buyrug'i yordamida papkalar direktoriyasini yarating
5. chown user1:group1 file1 buyrug'i yordamida file1 nomli faylning egasi sifatida yangi foydalanuvchi va guruhni o'rnating

### **Variant №8**

1. cd buyrug'i yordamida joriy papkani o'zgartiring.
2. comm -2 file1 file2 buyrug'i yordamida ikki fayl tarkibini solishtiring. ('file2' tarkibi ko'rsatilmaydi)
3. find /usr/bin -type f -atime +100 buyrug'i yordamida '/usr/bin' manzilda joylashgan, oxirgi marta ko'rilganiga 100 kundan ko'p bo'lgan fayllarni qidiring
4. gzip -9 file1 buyrug'i yordamida file1 nomli fayl xajmini maksimal darajada kichraytirib arxivlang.
5. useradd user1 buyrug'i yordamida user1 nomli foydalanuvchi yarating

### **Variant №9**

1. sort file1 file2 buyrug'i yordamida ikkita fayl tarkibini tartiblang.
2. groupmod -n new\_group\_name old\_group\_name buyrug'i yordamida old\_group\_name nomli guruhni new\_group\_name nomi bilan qayta nomlang
3. recode ..HTML < page.txt > page.html buyrug'i yordamida page.txt nomli faylni page.html nomli html-faylga o'zgartiring.
4. du -sh dir1 buyrug'i yordamida dir1 papkasi xotiradan egallagan joyni xisoblang. du -sk \* | sort -rn buyrug'i yordamida fayl va papkalarni xajmga nisbatan tartiblab, ro'yhatini chiqaring.
5. chattr +s file1 buyrug'i yordamida faylni tiklab bo'lmas parametr bilan o'chiring. chattr +u file1 buyrug'i yordamida faylni tiklash imkoniyatini saqlagan holda o'chiring.

### **Variant №10**

1. comm -1 file1 file2 buyrug'i yordamida ikki fayl tarkibini solishtiring. ('file1' tarkibi ko'rsatilmaydi)
2. tac file1 buyrug'i yordamida file1 nomli fayl tarkibini teskari tartibda chiqaring
3. date buyrug'i yordamida tizim vaqtini aniqlang.
4. date 041217002016.00\* buyrug'i yordamida tizim sanasi va vaqtini sozlang (OyKunSoatMinutYil.Sekund)
5. rar a file1.rar file1 file2 dir1 buyrug'i yordamida 'file1.rar' nomli arxiv yarating va unga file1, file2 nomli fayllar va dir1 nomli papkani qo'shing.

### **Variant №11**

1. mv buyrug'i yordamida faylyo yoki papkani nomini o'zgartiring.
2. groupmod -n new\_group\_name old\_group\_name buyrug'i yordamida old\_group\_name nomli guruhni new\_group\_name nomi bilan qayta nomlang
3. cd ~user foydalanuvchining bosh papkasiga o'ting.
4. lsattr buyrug'i yordamida faylning atributlarini chiqaring.
5. free -m buyrug'i yordamida operativ xotira xajmini bayt xisobida chiqaring.

### **Variant №12**

1. ps -eafw buyrug'i yordamida ishga tushirilgan protsesslar haqida to'liq ma'lumotni oling.
2. bunzip2 file1.bz2 buyrug'i yordamida faylni 'file1.gz' nomli arxivga saqlang
3. mkdir -p /tmp/dir1/dir2 buyrug'i yordamida papkalar direktoriyasini yarating
4. rm -f file1 buyrug'i yordamida 'file1' nomli faylni o'chiring
5. passwd user1 buyrug'i yordamida user1 nomli foydalanuvchi parolini o'zgartiring.

### **Variant №13**

1. chattr +a file1 buyrug'i yordamida faylni faqat ma'lumot qo'shish rejimida ochish uchun sozlang
2. ls -l /home/user1 buyrug'i yordamida /home/user1 manzilidagi barcha ochilgan fayllarni oching
3. passwd buyrug'i yordamida parolni o'zgartiring.
4. rmdir dir1 buyrug'i yordamida 'dir1' nomli papkani o'chiring
5. last reboot buyrug'i yordamida tizimni qayta yuklashlar ro'yhitini chiqaring.

### **Variant №14**

1. groupadd buyrug'i yordamida o'zingizning ismingiz bilan nomlangan guruh yarating.
2. userdel -r user1 buyrug'i yordamida user1 nomli foydalanuvchi va unga tegishli papkani o'chiring.
3. bunzip2 file1.bz2 buyrug'i yordamida faylni 'file1.gz' nomli arxivga saqlang
4. cat file1 buyrug'i yordamida file1 nomli fayl tarkibini chiqaring
5. sed 's/string1/string2/g' example.txt buyrug'i yordamida example.txt nomli fayldagi «string1» so'zlarini «string2» bilan almashtiring va natijani ekranga chiqaring.

### **Variant №15**

1. cat /proc/meminfo buyrug'i yordamida foydalanilgan xotira haqida ma'lumot oling.

2. `groupmod -n new_group_name old_group_name` buyrug'i yordamida `old_group_name` nomli guruhni `new_group_name` nomi bilan qayta nomlang
3. `head -2 file1` buyrug'i yordamida `file1` nomli faylning ikkita qatorini chiqaring `tail -2 file1` buyrug'i yordamida `file1` nomli faylning so'nggi ikkita qatorini chiqaring
4. `more file1` buyrug'i yordamida `file1` nomli fayl tarkibini chiqaring
5. `groupadd` buyrug'i yordamida o'zingizning ismingiz bilan nomlangan guruh yarating.

## Laboratoriya ishi № 4


- Mavzu:** MS Word dasturida “Kompyuter qurilmalari” mavzusida elektron qo’llanma yaratish
- Ishdan maqsad:** Offis dasturlar va ularning vazifalari, MS Office Word dasturining interfeysi, vazifasi va imkoniyatlari bilan tanishish. Dasturda xujjatlar yaratish, ularni taxrirlash va chop etishni o’rganish.
- Variant:** 0-variant
- Topshiriq:** MS Word dasturi yordamida kompyuter qurilmalari haqida ma’lumot beruvchi fayl yarating va uni web-xujjat ko’rinishda saqlang.

### Ishni bajarish tartibi:

Elektron qo’llanmalarining mundarijasi odatda gipersilka ko’rinishida bo’ladi. Chunki foydalanuvchi rejalaridan birini tanlaganda shu rejaga mos mavzu ochilishi kerak. Gipersilkali mundarija yaratish uchun avvalo rejaning o’zini kiritib olish kerak:

Kirish  
Kompyuterning asosiy qurilmalari  
    Monitor  
    Tizimli blok  
    Klaviatura  
Qo’shimcha qurilmalar  
    Printer  
        Purkovchi  
        Lazerli  
        Ignali  
    Skaner

Rejaning “Kirish”, “Kompyuterning asosiy qurilmalari” va “Qo’shimcha qurilmalar” bo’limlari asosiy bo’limlar hisoblangani uchun ularni ajratib olib, buyruqlar tasma-sining Ссылки bo’limidagi Добавить текст buyrug’i yordamida 1-darajali matnga aylantiramiz. Huddi shu kabi “Monitor”, “Tizimli blok”, “Klaviatura”, “Printer”, “Sakaner”larni 2-darajali hamda “Purkovchi”, “Lazerli” va “Ignali” so’zlarini 3-darajali matnlarga ayantiramiz:



Natijada reja taxminan quyidagicha ko'rinishga keladi:

[Kirish](#)

[Kompyuterning asosiy qurilmalari](#)

[Monitor](#)

[Tizimli blok](#)

[Klaviatura](#)

[Qo'shimcha qurilmalar](#)

[Printer](#)


[Purkovchi](#)

[Lazerli](#)

[Ignali](#)


[Skaner](#)

Rejalarni darajalarga ajratish natijasida fayl matni sarlavhalar bilan ajratilgan bir necha qismlarga ajralib qoladi. Buni ko'rish uchun buyruqlar tasmasining Вид bo'limidagi Область навигации maydonini faollashtirib qo'yish kerak:




Keyilgi bosqichda rejalar matn bilan to'ldiladi va fayl web-sahifa sifatida saqlanadi. Buning uchun F12 tugmasini bosamiz. Natijada Сохранение файла muloqot oynasi ishga tushadi. Faylni web-sahifa ko'rinishiga o'tkazish uchun

muloqot oynasining pastki qismidagi Тип файла maydonidan “Веб-страница” variantini tanlash lozim:




Имя файла maydonida esa ixtiyoriy nom yoziladi (odatda index).

Сохранить tugmasi bosilgach, ishchi stolda index.html nomli fayl hosil bo'ladi. Ushbu fayl odatda browser yordamida ochiladi.



Reja tuzib olingach, uning tarkibi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. Qo'llanma tayyor bo'lgach Word dasturining avtomatik tarzda mundarija hosil qilish imkoniyatidan foydalanib, mundarija yaratiladi. Buning uchun kursor faylning birinchi yoki oxirgi sahifasiga qo'yiladi va Ссылки bo'limining Оглавление tugmasi bosiladi:




uzib olingach, uning tarkibi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. Qo'llanma tayyor bo'lgach Word dasturining avtomatik larija hosil qilish imkoniyatidan foydalanib, mundarija yaratiladi. Buning uchun kursor faylning birinchi yoki oxirgi o'yiladi va Ссылки bo'limining Оглавление tugmasi bosiladi]

an matni formatlash uchun avval uni blokka olinadi. Buning uchun matnning boshlang'ich qismiga kursorni joylashtirib, shift tugmasini bosgan holda o'ngga yo'nalish tugmasini bosiladi. Yoki kursorni matnning boshiga olib borib, sichqonchani chap tugmasini bosgan holda kerakli joygacha blokka olinadi.


Keyingi bosqichda Главная menyusidagi Шрифт bo'limining pastki o'ng burchagidagi strekani bosiladi:

Natijada kursor o'rnida qo'llanmaning rejasi hosil bo'ladi:




Berilgan matni formatlash uchun avval uni blokka olinadi. Buning uchun matnning boshlang'ich qismiga kursorni joylashtirib, shift tugmasini bosgan holda o'ngga yo'nalish tugmasini bosiladi. Yoki kursorni matnning boshiga olib borib, sichqonchani chap tugmasini bosgan holda kerakli joygacha blokka olinadi.

Keyingi bosqichda Главная menyusidagi Шрифт bo'limining pastki o'ng burchagidagi strekani bosiladi:



Natijada quyidagi Шрифт oynasi ochiladi:




Шрифт oynasini ochishning yana bir usuli klaviaturadan **Ctrl+D** tugmalarini bosishdir. Ushbu oyna yordamida Shrift, Начертание, Шрифт o'lchami, Matn rangi kabi parametrlarni sozlash mumkin.


Matndagi abzats, abzatslar orasidagi masofa, qatorlar orasidagi masofani sozlash uchun Абзац muloqot oynasini ochish kerak. Buning uchun Главная menyusidagi Абзац bo'limining pastki o'ng burchagidagi strelkani bosiladi:




Natijada quyidagi Абзац muloqot oynasi ishga tushadi:



Varaqlning rangini sozlash uchun Дизайн menyusidagi Фон страницы maydonidagi Цвет страницы tugmasini bosamiz. Natijada maxsus ranglar palitrasi ochiladi:



Ranglar palitrasidan ixtiyoriy rangni sichqonchanning ko'rsatkichi yordamida tanlash mumkin. Varaqqa rang sifatida palitradagi ranglardan tashqari maxsus fon uchun rasmlardan ham foydalanish mumkin. Buning uchun yuqorida ko'rsatilgan oynadagi Способы заливки... buyrug'i tanlanadi. Natijada Способы заливки oynasi ishga tushadi:



Ойна то'rtta Вкладкadan iborat bo'lib, ularda gradiyent, tekstura, uzor va rasmlardan fon sifatida foydalanish imkoniyati beriladi.

### Topshiriqlar.

MS Word dasturi yordamida kompyuter qurilmalari haqida ma'lumot beruvchi fayl yarating va uni web-xujjat ko'rinishda saqlang.

- |                    |                 |
|--------------------|-----------------|
| <b>1-variant.</b>  | Monitor         |
| <b>2-variant.</b>  | Case            |
| <b>3-variant.</b>  | Klaviatura      |
| <b>4-variant.</b>  | Sichqoncha      |
| <b>5-variant.</b>  | Ovoz karnaylari |
| <b>6-variant.</b>  | Disk yurituvchi |
| <b>7-variant.</b>  | Operativ xotira |
| <b>8-variant.</b>  | Doimiy xotira   |
| <b>9-variant.</b>  | Flash xotira    |
| <b>10-variant.</b> | Video xotira    |
| <b>11-variant.</b> | Protessor       |
| <b>12-variant.</b> | Modem           |
| <b>13-variant.</b> | Tarmoq kartasi  |
| <b>14-variant.</b> | Tarmoq kabeli   |
| <b>15-variant.</b> | Kompakt disk    |

## Laboratoriya ishi № 5

**Mavzu:** MS Access dasturida guruh talabalari ma'lumotlar bazasini yaratish


**Ishdan maqsad:** Ma'lumotlar ombori, ularning turlari, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari, jadval, forma, so'rov kabi tushunchalar haqida olingan nazariy bilimlarni amalda ko'llash ko'nikmasiga ega bo'lish. Access dasturida Jadvallar va so'rovlar hosil qilishni o'rganish.

**Variant:** 0-variant


**Topshiriq:** MS Access dasturi uskunaviy vositalaridan foydalangan holda guruh ma'lumotlar omborini yarating.

### Ishni bajarish tartibi

MS Access dasturini ishga tushiring



Hosil bo'lgan ishchi oynadan “Новая база данных” bo'limidan “имя файла” taklif qatoriga nom (“talaba”) kiriting va “Создать” tugmachasini bosing va yangi MB yarating.




Dastlab “Kurs” nomli quyidagi jadvalni yarating.

Код	Курс	...




Buning uchun ishchi oynaning chap yuqori bo`limida joylashgan “Режим” vkladkasidan “Конструктор” buyrug`ini bosing.



Yuqorida rasmda ko`rastilgani kabi jadvalni to`ldiring va saqlash (**Ctrl+S**) tugmachasini bosing. Konstruktor rejimidan chiqing. Buning uchun **Ctrl+W** tugmachalarini bosing.

Dasturning ob`ektlar bo`limida “Kurs” nomli jadval hosil bo`ladi. Jadval nomi ustida sichqonchani chap tugmachasini ikki marta bosing va jadvalni to`ldiring.



Saqlang va rejimdan chiqing.

Navbatdagi “Yo’nalish”, “Guruh”, “Fakultet” nomli jadvallarni ham yuqoridagi kabi yarating va to`ldiring.

Yo’nalish


Код	Nomi	Kafedra mudiri	...

Guruh

Код	Nomi	*Yo’nalish	*Guruh rahbari	...

Fakultet

Код	Nomi	Dekan	Telefon raqami	...




Endi esa asosi jadvalni yaratamiz.

Asosiy jadval


Код	FIO	*Fakultet	*Guruh	*Yo’nalish	*Kurs	Yashash manzili	...

Yulduzcha (\*) belgisi bilan ajratilgan ustunlardagi qiymatlar o’zgaras bo’lganligi sababli, ularning qiymatini mos ravishda maxsus jadvallardan olinadi:

